

14-sonli Pudrat shartnomasi
Lot № 22110012113795 06 iyul 2022 yil

Samarqand shaxar

«13» iyul 2022 y.

Obodonlashtirish boshqarmasi keyingi o'rirlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi. O'zining Nizomi asosida ish yurituvchi Yu.Yu.Bobonazarov nomidan, bir tomonidan va OOO SAM SHOXINUR QURILISH keyingi o'rirlarda "Bajaruvchi" deb yuritiladi, o'zining Nizomi asosida ish yurituvchi raxbar Sh. Balmanov nomidan, ikkinchi tomonidan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

1. KONTRAKT PREDMETI:

1.1. Mazkur kontrakt bo'yicha "Buyurtmachi" pudrat ishlarni qabul qilish va to'lash, "Pudratchi" esa buyurtmachining buyurtmasi bo'yicha quyidagi pudrat ishlarini bajarish majburiyatini oladi:

Nº	Ishning nomi	E'lon bo'yicha	Shartnoma summasi
	Samarqand shahar Hunarmandlar MFY Spitamenshox 1 ko'cha ichki yo'llarini joriy ta'mirlash ishlari. L=700M	301382886	299397367
	Jami		299397367

1.2. Kontraktning umumiy summasi QQS bilan 299397367 (Ikki yuz to'qson to'qqiz million uch yuz to'qson yetti uch yuz oltmis yetti) so'mni tashkil qiladi.

1.3. Ishni boshlash va topshirish muddati:Boshlanishi:"14" iyul 2022 y. Tugashi:"15" avgust 2022 y.

2. HISOB-KITOBLAR TARTIBI

2.1. "Buyurtmachi" mazkur kontraktni g'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan boshlab 10 bank ish kuni ichida qonunchilikka muvofiq kontrakt umumiy summasidan 30 % miqdorida (shartnoma summasining 30% miqdorida) oldindan to'lash majburiyatini oladi, qolgan 70 % ni bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnoma imzolanganidan so'ng 10 bank ish kuni ichida qabul qilish dalolatnomasi, hisob-fakturna v.b. asosida to'laydi.

2.2. Kontrakt narxi elektron savdo natijasi bo'yicha belgilanadi va o'zgartirilmaydi, kontraktga qo'shimcha kelishuv tuziladigan hollar bundan mustasno.

2.3. Ishlar yakunlangandan keyin "Pudratchi", "Buyurtmachiga" bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnomani taqdim etadi.

2.4. "Buyurtmachi" dalolatnoma va unga ilova qilingan boshqa hujjatlarni olgandan keyin 10 bank ish kuni ichida imzolangan dalolatnomani yoki ishlarni qabul qilishni asosli ravishda rad qilish xatini "Pudratchi"ga yuborish majburiyatini oladi.

2.5. Rad qilingan holatda, qabul qilishni asosli ravishda rad qilinishi yuzasidan kamchilikliklarni bartaraf etish ro'yxati va muddati bo'yicha tomonlar o'rtasida dalolatnoma tuziladi.

3. KONTRAKTNING BAJARILISHI

3.1. Mazkur kontrakt belgilangan tartibda kontrakt talablari va shartlariga va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi muvofiq ijro etilishi shart.

3.2. Kontrakt shartlarini bajarishni bir tomonlama rad qilish yoki kontrakt shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi belgilangan hollar bundan mustasno.

3.3. Tomonlar o'z zimmalariga olgan barcha majburiyatlarning ijrosini ta'minlagan taqdirda kontrakt bajarilgan hisoblanadi.

3.4. Buyurtmachining roziligi bilan pudrat ishlari muddatidan oldin bajarilishi mumkin.

3.5. Pudrat ishlari bevosita Buyurtmachining mas'ul xodimlari tomonidan ishlar hajmi va ularning sifati ko'rsatiladigan dalolatnoma bo'yicha qabul qilinadi.

4. TOMONLARNING JAVOBGARLIKHLARI

4.1. Buyurtmachi:

-savdolarni o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlarning ishonchliligi va O'zbekiston Respublikasining amaldaqi qonun hujjatlariga muvofiqligi;

-savdolar g'olib bo'lган pudratchi bilan kontrakt tuzish yoki savdolar g'olib bo'lган yetkazib beruvchi bilan kontrakt tuzishni rad etish muddatiga rioya etilishi (ajratilgan byudjet mablag'lari kamayishi holatlari bundan mustasno);

-tomonlar o'rtasidagi kontrakt majburiyatlarini bajarish tugallangandan keyin besh yil mobaynida savdolar predmeti bo'yicha e'lolar va texnik hujjatlarning asl nusxalari saqlanishi uchun javob beradi.

4.2. Bajarilgan ishlarni tanlab olmaslik, shuningdek bajaruvchi shartnomada belgilangan muddatda (davrda) ularni ishlarni bajarganda, ishlarni qabul qilib olishni asossiz ravishda rad etganlik uchun buyutmachi pudratchiga qabul qilib olinmagan (o'z muddatida qabul qilib olinmagan) ishlar qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi.

Qabul qilib olinmagan (olish asossiz rad etilgan) hollarda, pudratchi jarima undirishdan tashqari, ushbu ishlar bajarilganligining kafolatlarini taqdim etgan holda, qabul qilib olinmagan (o'z muddatida qabul qilib olinmagan) ishlar qiymati to'lanishini talab qilishga haqlidir.

4.3. To'lov talabnomasi aktseptini asossiz ravishda butunlay yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-kitobning boshqa shakllarida ishlar haqini to'lashdan bosh tortganlik (bank muassasasiga to'lov topshiriqnomasini taqdim etmaganlik, chek bermaganlik, akkreditivni taqdim etmaganlik va hokazo) uchun buyurtmachi pudratchiga o'zi to'lashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi.

Bajarilgan ishlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun buyurtmachi pudratchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'limgan miqdorida penya to'laydi.

4.4. Pudratchi:

-savdolarda qatnashish uchun taqdim etilgan hujjatlarning ishonchliligi;

-sifat, texnik parametrlar va taklif etilayotgan ishlarni bajarish muddatlari pudratchi buyurtmanomalarini shartlarining buyurtmachi buyurtmanomalarida nazarda tutilgan shartlarga muvofiqligi; - savdolar shartlarining boshqa buzilishlari;

-tuzilgan kontrakt shartlarining bajarilmaganligi uchun javob beradi

4.5. Agar bajarilgan ishlar sifati standartlar, texnik shartlar, qonun hujjatlarida yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, buyurtmachi ishlarni qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, pudratchidan sifati lozim darajada bo'limgan ishlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar ishlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati lozim darajada bo'limgan ishlar bajrganlik uchun jarima yetkazib pudratchidan aktseptsiz tartibda undirib olinadi.

4.6. Pudrat ishlari bajarish muddati o'tkazib yuborilgan yoki bajarilmagan hollarda Pudratchi Buyurtmachiga har bir o'tkazib yuborilgan kun uchun majburiyatning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq penyalarning umumiy summasi bajarilmagan pudrat ishlari qiymatining 50 foizidan oshishiga yo'l qo'yilmaydi. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni kontraktni

tegishli tarzda bajarish va pudrat ishlarini bajarish muddatini o'tkazib yuborilishi yoki bajarilmasligi natijasida yetkazilgan zararlarni qoplab berish majburiyatidan ozod qilmaydi.

5. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

- 5.1. Kelishmovchiliklar va bahslar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.
- 5.2. Tomonlar kelishmovchilik va bahslarni hal etish uchun bevosita iqtisodiy sudiga murojaat qilishga haqlidir.
- 5.3. Tomonlar xo'jalik sudiga murojaat qilgan taqdirda, sud ishi da'vogar joylashgan manzildagi iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

6. FORS-MAJOR

- 6.1. Fors-major natijasida majburiyatlarni bajarilmasligi holatlari kelib chiqsa va bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 15 fevralidagi 63-sonli "Engib bo'lmas kuch (fors-major) holatlarining mavjudligini tasdiqlash mexanizmini kiritish to'g'risida"gi qarorida ko'zda tutilgan shartlarda tomonlar ushbu kontrakt bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarilishidan ozod etiladi.

7. BOSHQASHARTLAR

- 7.1. Ushbu shartnomada tomonlarning ko'zda tutilmagan o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan tartibga solinadi.

8. KONTRAKTNING AMAL QILISH MUDDATI

- 8.1. Mazkur kontrakt g'aznachilikda majburiy ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 y. "31" dekabrgacha amal qiladi.

- 8.2. Kontraktning amal qilishi bir tomonning tashabbusiga ko'ra oy (bir) davomida boshqa tomonga yozma ariza topshirgan kundan boshlab, barcha o'zaro hisob-kitoblar tugaganligi muddatidan avval to'xtatilishi mumkin. Tomonlar o'z zimmalariga olgan barcha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlagan hollarda kontrakt bajarilgan hisoblanadi.

- 8.3. Kontraktning amal qilish muddatini tugashi tomonlarni javobgarlikdan ozod qilmaydi.

9. KORRUPSIYAGA QARSHI TALABLAR.

- 9.1. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarni bajarishda Tomonlar korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi, yani ular, ularning xodimlari, kafillangan shaxslar, benifitsiyalari va shartnomanli amalga oshirishdagi xamkorlari, pudratchilari tomonidan bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilish moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.


- 9.2. Tomonlar korruptsiyaga qarshi qoidalalar buzulganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganida darxol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan xolatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izox talab qilish

xuquqiga ega va murojaatini olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushintirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.

9.3. Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korruption xavfxatar barataraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korruption holatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish xuquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin.

9.4. Ushbu bobda ko'rsatilgan asoslar bo'yicha shartnomani bir tomonlama bekor qilish talab qilgan tomonga yetkazilgan zararlarni qoplash qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi, ushbu bobning majburiyatlari- ni buzgan tomon esa shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishi oqibatida ko'rildigan zararlar qoplashni talab qilishiga xaqli emas.

10. YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

Bajaruvchi	Buyurtmachi
<i>Tashkilot nomi OOO SAM SHOXINUR QURILISH</i>	
<i>Manzil: Samarqand shahar Motrid massivi 76/14</i>	<i>Obodonlashtirish boshqarmasi</i>
<i>Telefon:</i>	<i>Manzil: Chuqr yo'l ko'chasi 21 uy</i>
<i>STIR kodi: 306 686 162</i>	<i>Tel./faks: 8 (366)</i>
<i>OKED: 42110</i>	<i>sh/h : 100022860184017045201110002</i>
<i>X/R 2020 8000 1051 1842 4001</i>	<i>Markaziy bank Toshkent shaxar bosh boshqarmasi</i>
<i>Bank nomi: ATB «Hamkor bank» Bog'ishamol fil</i>	<i>STIR 204858743</i>
<i>MFO: 01126</i>	<i>OKONX</i>
<i>Raxbar:</i>	<i>Samarkand shaxar G'aznachilik bulinmasi</i>
	<i>G'azna h/v 23402000300100001010</i>
<i>Sh. Balmanov</i>	<i>Bankning nomi XKKM Markaziy bank</i>
	<i>MFO 00014</i>
	<i>g'aznachilik bulinmasi STIRi 201122919</i>
	<i>Rahbar</i>
	
	<i>Yu.Bobonazarov</i>
	<i>(lavozim)</i>
	<i>(F.I.Sh)</i>



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
SAMARQAND VILOYATI ADLIYA BOSHQARMASI
SAMARQAND SHAHAR YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZI

170800, Samarqand shahar, Kurchatov ko'chasi, 9-uy,
tel.: (998 66) 233 34 37, el.pochta: Samarcandyurmarkazi@mail.ru

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA**

SHARTNOMA

“Buyurtmachi” “Samarqand shahar hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi” hamda “Bajaruvchi” “SAM SHOXINUR QURILISH” MCHJ tomonidan 2022-yil 13 iyuldagagi tuzilgan №-14-sonli Pudrat shartnomasi to‘g‘risida.

Shartnomaning umumiy summasi 299 397 367,00 (Ikki yuz to‘qson to‘qqiz million uch yuz to‘qson yetti ming uch yuz oltmis yetti) so‘nni tashkil qiladi.

Mazkur kontrakt g‘aznachilik bo‘linmalarida majburiy ro‘yxatga olingan vaqtidan kuchga kiradi va 2022 yil 31-dekabrgacha amal qiladi.

“Buyurtmachi” “Samarqand shahar Obodonlashtirish boshqarmasi” hamda “Bajaruvchi” “SAM SHOXINUR QURILISH” MCHJ tomonidan 2022-yil 13 iyuldagagi tuzilgan №-14-sonli Pudrat shartnomasi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, “Xo‘jalik yurituvchi subektlarning shartnomaviy-huquqiy bazasi” to‘g‘risidagi qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Shartnomaviy munosabatlarni tubdan takomilashtirish chora-tadbirlari to‘g‘sida”gi farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat xaridlari to‘g‘risida»gi qonunini talablariga muvofiq tayyorlangan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.



**Loyiha Samarqand shahar hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi
tomonidan 14.07.2022-yil tizimga kiritilgan.**

2022-yil 15-iyul

**Samarqand shahar
Yuridik xizmat ko'rsatish
Markazi Bosh yuriskonsulti**



S.Haydarova



2420248



Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"SAM SHOXINUR QURILISH" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsening – tadbirkorlik subyektlining tashkiliy-huquqly shakli ko'satilgan holdagi to'liq nomi)

"SAM SHOXINUR QURILISH" MChJ

(Yuridik shaxsening qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

06.09.2019

757938

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikasiya raqami (STIR):

306686162

Tashkiliy-huquqiy
shakli:

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi:

Samarqand viloyati, Samarqand shahri, MAXMUD KOSHGARIY KO'CHASI
63-UY,

Guvohnoma:

Samarqand viloyati, Samarqand shahri, DAVLAT
XIZMATLARI MARKAZI

tomonidan
berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):



“ТАСДИҚЛАЙМАН”
“Ободонлаштириш бошқармаси
бошлиқ уринбосари, комиссия раиси



Т.Чутбоев

Самарканд шаҳар ҳокимлиги Ободонлаштириш бошқармаси биносида
Самарканд шаҳар Хунармандлар МФЙ Спитаменшоҳ 1 кучи ички йулларини
жорий таъмирлаш ишлари бўйича ташкилотлар ўтказида танлоб ўтказиши
бўйича комиссия йиғилиши

БАЁНИ

Самарканд шаҳри

«8» июл 2022 й.

Раислик қилувчи

Т.Чутбоев

Иштирок этган комиссия аъзолари:

Ж.Саидов
Ж.Камбаров
Ж.Бабаев
Ш.Сохибназаров
Т.Эгамуродов

Комиссия аъзоси, Бош мухандис в.в.б
Комиссия аъзоси, бош агроном
Комиссия аъзоси, Булим бошлиги
Комиссия аъзоси, булим бошлиги
Котиб, бош хисобчи

КУН ТАРТИБИ:

Самарканд шаҳар ҳокимлиги Ободонлаштириш бошқармаси биносида
Самарканд шаҳар Хунармандлар МФЙ Спитаменшоҳ 1 кучи ички йулларини
жорий таъмирлаш ишлари.

(Т.Чутбоев,Ш.Сохибназаров, Ж.Бабаев, Т.Эгамуродов)

Бошкарма томонидан 2022 йил 06 апрелда Ўзбекистон Республикаси
Товар ва хом-ашё биржасининг электрон порталига Самарканд шаҳар
ҳокимлиги Ободонлаштириш бошқармаси биносида Самарканд шаҳар
Хунармандлар МФЙ Спитаменшоҳ 1 кучи ички йулларини жорий таъмирлаш
ишлари № 113795-лот рақами билан эълон жойлаштирилди. Мазкур лот
бўйича 2022 йил 6 июлдаги энг яхши таклифларни танлаш савдосини
ўтказиши бўйича давлат харидлари комиссиясининг электрон портали орқали
шаклланган Самарканд шаҳар ҳокимлиги Ободонлаштириш бошқармаси
биносида бошкарма томонидан Самарканд шаҳар Хунармандлар МФЙ

Спитаменшох 1 кучи ички йулларини жорий таъмирлаш ишлари буйича баённомасига асосан эълон якунига кўра Комиссия аъзолари томонидан ООО SAM SHOXINUR QURILISH корхонаси ғолиб деб топилганлигини инобатга олиб:

ҚАРОР ҚИЛИНДИ:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 22 апрелдаги “Давлат харидлари тўғрисида”ги 684-сонли Қонунининг 62-моддаси 3-бандига асосан комиссия баённомаси давлат харидлари электрон тизимига мухокама қилиш учун икки иш кунига жойлаштирилди. Икки иш куни давомида давлат харидлари электрон тизимига жойлаштирилган баённома бўйича хеч қандай эътиrozлар ёки қўшимча таклифлар келиб тушмаганлиги маълумот учун қабул қилинсин.

2. Бошкарма бош бухгалтери Т.Эгамурадовга:

Юқоридагилардан келиб чиқиб ҳамда комиссия аъзоларининг 2022 йил 30 июндаги электрон баённомасига асосан ғолиб ООО SAM SHOXINUR QURILISH корхонаси билан қонунчиликда ўрнатилган тартибда шартнома тузилсин.

3. Бошкарма бош мухандиси в.в.б Ж.Саидов Самарканд шахар ҳокимлиги Ободонлаштириш бошқармаси биносида Самарканд шахар Хунармандлар МФЙ Спитаменшох 1 кучи ички йулларини жорий таъмирлаш ишларининг сифат даражаси назорат қилинсин.

Комиссия аъзолари

Комиссия аъзоси, Бош мухандис в.в.б

Ж.Саидов

Комиссия аъзоси, бош агроном

Ж.Камбаров

Комиссия аъзоси, Булим бошлиги

Ж.Бабаев

Комиссия аъзоси, булим бошлиги

Ш.Соҳибназаров

Котиб, бош хисобчи

Т.Эгамурадов